

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

"IQTISODIYOT" FAKULTETI

"BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT" KAFEDRASI

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI»


«BH va Audit» kafedrasini mudiri v.b.

 dots. R.I. Omonov

«16» 06 2014 yil

«TASDIQLAYMAN»

«Iqtisodiyot» fakulteti dekani

 dots. A.P. Xurramov

2014 yil

Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta'minlashning hozirgi davr muammolari (Qarshi tumani maliya bo'limi misalida) mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: «Moliya» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi IV kurs M-468 guruh
talabasi  I. Ozardov

ILMIY RAHBAR:
QurMII B.Y. va A. kafedrasini
assistenti  R.I. Rashidov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi

16 sonli hayonoma «16» 06 2014 y.

QARSHI – 2014 yil

«BH va AUDIT» KAFEDRASI

«18» 06 2014

№ 57

“Tasdiqlayman”
“BH va A” kafedrası mudiri v.b.
_____ dots.R.Omonov
“ _ ” _____ 2014 yil

**Mavzu: Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta’minlashning
xozirgi davr muammolari
(Qarshi tumani moliya bo’limi misolida)**

REJA:

Kirish

I-bob. Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta’minlashning obyektiv zarurligi va mavjud muammolari.

- 1.1 Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy tasnifi, tuzilishi va vazifalari.
- 1.2 Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash-ning nazariy asoslari va xuquqiy jixatlari.
- 1.3 Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash-ning xozirgi davr muammolarining o’ziga xos xususiyatlari.

II-bob. Qarshi tumani moliya bo’limi mahalliy byudjetlar takibi va undan foydalanish xolati tahlili.

- 2.1. Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarning xozirgi xolati va dinamikasi tahlili.
- 2.2. Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarining taqsimlanishi xolati tahlili.
- 2.3. Mahalliy byudjet mustaqilligi va barqarorligini ta’minlashning muammolari.

III-bob. Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta’minlashning xozirgi davr muammolarini bartaraf etishning ustivor yo’nalishlari.

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

Ilmiy rahbar:

assistent R.I.Rashidov

M-468 guruh talabasi:

I.Ozodov

Kirish

BMI mavzusining dolzarbligi. Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy davlat hokimiyatining faoliyat ko'rsatishining asosiy moliyaviy manbasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000 yil 14 dekabrda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunida "Mahalliy byudjet -Davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori ko'zda tutilishi ko'rsatilgan.

Bugungi kunda global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning ikkinchi to'liqini, 2012 yilda Yevropa mamlakatlaridan yuqori miqdorda byudjet taqchilligining paydo bo'lishiga olib kelganliini barchamiza ayon.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday deydi: "global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi"¹. Aholi turmush darajasi izchil yuksaltirishda mahalliy byudjetlarda, ayniqsa ularning barqaror daromad bazasiga ega bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy byudjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlaridan ajratmalar hisobiga shakllanadi. Respublika va mahalliy byudjetlari mustakilligi va barkarorligi shubhasiz hududlarni iqtisodiy rivojlantirish ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikka mumkin qadar barham berishdan iborat. Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topish, soliq undirishning progressiv tizimini joriy qilish va mavjud soliq tushumlari asosini takomillashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada bu ishlarning xaqiqiy xolati xali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mahalliy byudjet faoliyatini hamda mahalliy byudjet daromadlari bazasini o'rganib chiqish va taxlil qilish zarurdir.

BMI maksadi. - mahalliy byudjetlarning mustakilligi va barkarorligini ta'minlashning hozirgi davr muammolarini urganish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chikishdan iborat.

BMI vazifalari. BMIning maqsadi mahalliy byudjetlarning mustakilligi va barkarorligini ta'minlashning hozirgi davr muammolarini urganish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chikishdan iborat.

Yuqoridagi maqsadga erishish uchun BMI ni bijarishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish belgilandi:

- mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarini iqtisodiy mohiyati va axamiyati yoritish;
- mahalliy byudjetlar solikli daromadlari shakllanish xususiyatlarini tavsiflash;

¹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: "O'zbekiston", 2013. – B.5.

- mahalliy byudjet daromadlari shakllanish manbalari, tuzilmasini o'rganish;
- mahalliy byudjetlarni tartibga soluvchi daromadlari solikli daromadlarni to'ldirish vositasi sifatidagi amaliyotini tadqiq qilish;
- umumdavlat soliqlaridan ajratmalardan mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllanish tahlilini baholash;

BMIning obyekti va predmeti. BMI ning obyekti kilib Qashqadaryo viloyati Karshi tumani byudjeti olindi. Tadqiqot predmeti bo'lib mahalliy byudjet daromadini shakllantirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishda keltirilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi mahalliy byudjetlarning mustakilligi va barkarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy yangiliklar shakllantirildi:

- mahalliy davlat hokimiyat organlarining soliq va byudjet tizimini barqarorlashtirish uchun huqumat tomonidan korxonalar foydasiga soliq, jismoniy shaxslar daromadidan soliq, QQS kabi tartibga solinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qayta ko'rib zarurligi asoslandi;
- byudjetga soliqlar tushumini keskin oshirish maqsadida byudjetga soliq to'lovlarini vaqtida va to'liq to'lamaganligi uchun korxonalar egalari va rahbarlariga qattiq mas'uliyatni yuklash, qarzdorlar mol-mulki hisobidan qarzlarni undirish tizimini soddalashtirish zarurligi yoritildi;
- mahalliy byudjetlarga qimmatli qog'ozlar bozorida (obligatsiyalar, mahalliy zayomlar) faol ishtirok etishiga normativ hujjatlar yaratish zarurligi asoslandi;
- hududlarda soliq va majburiy to'lovlarni ortig'i bilan bajarilganlik holatlarida ortiqcha bajarilgan daromad summasini byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning aniq metodikasini ishlab chiqish asoslandi.

I-bob. Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta'minlashning obyektiv zarurligi va mavjud muammolari.

1.1 Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy tasnifi, tuzilishi va vazifalari.

Mahalliy byudjet mablag'larining egasi sifatida amaldagi meyoriy hujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi byudjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Mahalliy byudjet xarajatlariga mablag'lar ajratish davlat hokimiyati, davlat boshqaruvi organlari moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan (moliya yili) boshlab ularni sarf – xarajat qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz beradi.

Mahalliy byudjet obyektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat. Ikkinchidan, esa bu xarajatlar korxonalarining daromadlaridan tashkil topadi.

Rivojlangan mamlakatlarga mahalliy byudjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig'imlar hisobiga shakllanadi. Bizning respublikamizda ham mahalliy byudjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig'imlar tashkil etadi. Mahalliy davlatlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshiradi, birinchi navbatda ijtimoiy infрасutrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag'larini taqsimlashda ahamiyatga ega.


Mamlakat byudjetining tuzilishi birinchi navbatda davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tizimi 2 bosqichdan iborat. Mahalliy byudjetlar davlatning davlatning moliya tizimini asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarida asosiy o'rinni ijtimoiy- ma'daniy tadbirlar xarajatlari egallaydi.

Hammamizga ma'lumki, aholini ijtimoiy himoyalash masalasining ustuvorligi O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustuvor yunalishi sifatida tan olinadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlarga o'tishning bosh tamoyilidan biri aholini demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy byudjetdan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanayotgan ijtimoiy to'lovlar hajmi oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida byudjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlar hukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, mahalliy moliya organlarining byudjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida byudjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va byudjet tushumlarining yangi manbalarni qidirib topishga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tuzilishining asosiy qismi sifatida o'zida 14 ta mustaqil byudjetni mujassamlashtiradi. Biz bilamizki, byudjet iqtisodiy ishlab chiqarish hosilasi, u nimani va qancha yaratsa shunga qarab shakllanadi. Uning mavjudligi iqtisodiy zarurat va buni ijtimoiy ne'matlarni takroran yaratilib turilishi yuzaga keltiradi. Byudjet iqtisodiyotga

davlat tomonidan ta'sir etishning faol vositasi hisoblanadi. U iqtisodiyotni o'sishiga qayta ta'sir etganda, ishlab chiqarish resurslarini rivojlantirishni byudjetdan moliyalashtirish orqali yuz beradi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlarining tuzilishi²

O'zbekiston Respublikasi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq, mahalliy byudjetlar tarkibiga kiruvchi byudjetlar quyidagi byudjetlarni o'z ichiga oladi.

– Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti - Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetini hamda respublikaga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetini;

– Viloyat byudjeti – umumviloyat byudjetini hamda viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar byudjetini;

– Tumanlarga bo'linadigan shahar byudjeti – umumshahar byudjetini hamda shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar byudjetlarini;

– Tarkibida shaharlari bo'lgan tuman byudjeti – umumtuman byudjetini hamda tuman bo'ysunuvidagi shaharlar byudjetlarini.

Huquqiy jihatdan mahalliy byudjetlar byudjet yili davomida daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, aniq maqsadlar uchun mo'ljallangan xarajat yo'nalishlari aks ettiriladigan moliyaviy xujjatdir.

Avvalgi yillarda asosan respublika byudjetidan moliyalashtirib kelingan kadrlar tayyorlash, hududiy ahamiyatdagi davlat kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish, 1994 yildan boshlab aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarning keskin oshib borishi va bu turdagi xarajatlarni asosan mahalliy byudjetlar

² Muallif tomonidan mustakil tayyorlandi.

hisobidan moliyalashtirish davlat byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar tarkibida mahalliy byudjetlar salmog'ining oshishiga olib keldi.

O'zbekiston mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida Respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhimdir. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida 1-navbatda boshqaruv tizimini tarkibini o'zgartirishni va jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni taqozo etadi.

Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishni ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan bog'liq. Albatta mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Davlat byudjeti tarkibida Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri byudjetlari, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi byudjeti bir butundir, ya'ni byudjet tizimi barcha bo'g'inlarga davlatning yagona davlat byudjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, shahrlar, tumanlar byudjetlarining uzviy birligini bildiradi.

Byudjet 1-navbatda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tizimning yahlitligini belgilab beradi. Byudjet tizimi butun respublika hududida amal qilayotgan davlat daromadlari hamda umumman Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, shahrlar, tumanlarni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining bir butun tizimiga asoslanadi. Byudjet yaxlitligi byudjetga doir prognozlashtirish uslubiyati va tashkil etish bir bo'g'inligini kafolatlaydi.

Byudjetning yaxlitligi Respublika o'z tasarrufiga pul resurslarining yagona markazlashtirilgan jamg'armasiga oladi, uni byudjet tizimining faqat biror-bir bo'g'iniga taqdim etishi mumkin emas, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga birlashtirilgan barcha byudjetlarning majmui sifatida ifodalanadi. Respublika byudjet tuzilmasining yaxlitligi va bir butunligi qonun tomonidan mustahkamlab qoyilgan, unda quyi byudjetlarning biri yuqori bo'g'inga kirishi ko'zda tutilgan.

Mahalliy resurslarni samarali boshqarish, munisipal iqtisodiyot subektlarining o'zaro aloqalarni muvofiq ravishda tashkil etish ishbilarmonlik faolligini oshirish, hamda munisipal xizmatlar ko'rsatish uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish imkonini beradi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida har bir sohada iqtisodiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, byudjet sohasida olib borilayotgan islohotlarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal byudjetga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Mustaqillikka erishgandan so'ng, o'tgan davr ichida chuqur iqtisodiy islohat negizida barqaror moliyaviy tizimni, uning asosini tashkil etuvchi mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro qilish soha sida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon iqtisodi integratsiyalashuvi jarayoni davlatimizning hamdavlat moliyasini boshqarishni doimiy tarzda takomillashtirish zarurligini yuzaga keltirmoqda. Shunga ko'ra, mamlakatimiz davlat byudjetining ijrosini rivojlanayotgan mamlakatlarda joriy etilgan va qisqa muddat mobaynida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatayotgan g'aznachilik tizimi faoliyatini joriy qilish arafasida turibdi.

Hozirgi kunda davlat byudjeti samarali ijrosini ta'minlashning davlat tadbirlari ichida mahalliy byudjetlarni boshqarishda g'aznachilik xizmatidan keng foydalanish va byudjet amaliyotida shu asosida tub o'zgarishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.


Mahalliy byudjetga g'aznachilikni joriy etish uchun zarur huquqiy, dasturiy va uslubiy bazani shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan va oshirilayotgan chora-tadbirlar aniq belgilab olindi. G'aznachilik organlarining maqsadi-byudjet sohalarini uzliksiz moliyalashtirib borish, byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan ajratilgan resurslarni byudjet tizimi to'g'risidagi qonun talablaridan kelib chiqib, byudjet tashkilotlariga yetkazish va ularning topshirig'iga asosan kassa operatsiyalarini yurgizishdan iborat.

Bozor iqtisodiyoti sharoiti byudjet siyosatining ahamiyati, byudjet jarayonlarida mahalliy byudjetlarning roli, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati moliya va byudjet siyosati masalalari hududiy iqtisodiyot taraqqiyoti va mahalliy byudjetlar muammolarini hal etishning dolzarb masalalaridir.

O'zbekiston Respublikasi byudjeti tizimini isloh qilish mahalliy byudjetlarni samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti va nazariyasi oldiga uning qator yangi muammolariga yechim topishni ko'ndalang qoymoqda.

Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining asosini tashkil etganligi uchun mahalliy byudjetlar daromadlarni oshirish davlatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir qo'shishi bilan birga xalqimiz farovonligining oshishiga hamda mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoriga tezroq kirib borishiga yordamlashadi.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mahalliy hokimyatlar vakolatini kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri – byudjet jarayonidagi vakolatlarni oshirish bilan bevosita bog'liq, chunki mahalliy byudjetlar hokimyatlar faoliyatida ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun iqtisodiy negiz hisoblanadi.



1-rasm. Mahalliy byudjetlarning asosiy vazifalari³

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi byudjeti tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit byudjet va ijtimoiy siyosatning manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta ma'suliyatli vazifalarni samarali boshqarishni talab etmoqdaki, ushbu vazifaning 2 jihatini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatning joylardagi ijobiy ijrosi yuki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olishdir, 2-dan, mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarning kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligidir. Ushbu har 2 jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borishni mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini ijobiy hal qilishga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "joylarda ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot muammolarini muvaffaqiyatli va moliyaviy inqirozlarsiz hal etish mahalliy byudjetlar daromad bazasining barqarorligini, ulardagi investetsion, soliq, valyuta imkoniyatlarining bir tekis taqsimotini talab etadi va hududlarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish lozim"⁴.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy byudjetlarni shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy hokimyat organlarining moliyaviy va huquqiy rolini oshirish hozirda dolzarbdir.

³ Muallif tomonidan mustakil tayyorlandi.

⁴ I.A.Karimov "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari"-T.: O'zbekiston. 2009y

Fikrimizcha, byudjetga "bu-turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat" deb tariflashda aynan mahalliy byudjetlarning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Byudjet asosiy moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'la qamrab oladi.

Mahalliy byudjetlar mahalliy hokimyatning faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi, davlatning ijtimoiy siyosatni joylarda amalga oshirishda rol oynaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishuvi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi sharoitida mahalliy byudjetlarning Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi.

1.2 Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari va xuquqiy jixatlari.

O'zbekistonda istiqlolning dastlabki yillaridanoq mahalliy o'zini-o'zi boshqarishga, xususan mahalliy davlat hokimiyatiga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichida nomarkazlashuv siyosati amalga oshirildi. Iqtisodiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etdi va bugungi Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish sharoitida davom ettirilmoqda.

O'zbekistonda yaqin istiqbolda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarga to'xtala turib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Davlat byudjetining ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlab qolinadi. Uning xarajatlar qismining 60 foizdan ortig'i ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga qaratilgan"⁵ ligi ta'kidlab o'tdilar.

Ana shu belgilangan vazifani amalga oshirishda barcha soha va tarmoqlarda, davlat boshqaruvinng turli pog'onalarida, byudjet-moliya sohasida ham chuqur islohotlarni jadallashtirish, yanada kengaytirish maqsadga muvofiq. Moliya-byudjet islohotlarini o'tkazish jarayoni, avvalo, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga ko'proq mustaqillik berishni, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ular rolini oshirish va shu bilan bir vaqtda ular moliyaviy manbalarini mustahkamlash, butunlay yangi moliya-byudjet va soliq mexanizmini yaratish, byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish va turli darajadagi byudjetlar o'rtasidagi xarajatlar vakolatlarini qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda mahalliy byudjetlarni boshqarishning, mahalliy byudjetlar xarajatlarini boshqarish va tartibga solishning oqilona usullarini yaratish va takomillashtirish masalalari alohida o'rin egallaydi.

So'nggi o'n yilliklar davomida bir qator mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning hududiylashuvi kuzatilmoqda. Bu jarayonlarni boshqarish funksiyalari tobora ko'proq markaziy hokimiyat organlaridan hududiy boshqaruv organlariga o'tib bormoqda. XX asrning so'nggi yillariga kelib butun dunyoda davlat tuzumi va boshqaruvida demokratik tamoyillarning rivojlanishi jadallashdi. Ko'pgina mamlakatlarda demokratik davlat tuzumining majburiy tarkibiy qismi – mahalliy o'zini-o'zi boshqarish bo'lib, uning mohiyatini aholi qatlamlarining o'zi ular tomonidan erkin asosda saylangan vaqillik organlari orqali boshqarishi tashkil qiladi. Hududiy vaqillik va ijroiya organlariga yuklatilgan funksiyalarni to'laqonli bajarish uchun ular ma'lum darajada mulkiy va moliyaviy-byudjet huquqlariga egadirlar. Bu huquqlarning amalga oshirilishi doirasida hududiy moliyaning o'rni va ahamiyati oshib bormoqda.

Shu o'rinda xorijiy va mahalliy yetakchi iqtisodchi olimlarning mahalliy byudjetlar va ularning mustaqilligi, barqarorligini ta'minlash yuzasidan bildirilgan fikrlarini keltirib o'tamiz.

⁵ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. – T.: "O'zbekiston", 2013. – B.21

Bizga ma'lumki, mahalliy mahalliy byudjetlarning mustaqilligi Respublika soliq siyosatining ijobiy natijasi hisoblanadi.

Mamlakat byudjet tizimi bo'yicha amalga oshiriladigan xarajatlarning 50 foizidan ko'proq qismi mahalliy byudjetlar hisobiga to'g'ri keladi. mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, xususan, jamiyat ijtimoiy infratuzilmasini saqlash va rivojlantirishga mo'ljallangan umumdavlat mablag'larini qayta taqsimlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Mahalliy byudjetlar, "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari, viloyatlar byudjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) byudjetlarni o'z ichiga oladi. Ularning daromadlari va xarajatlari tarkibi, byudjet jarayoni va byudjet huquqi qonun bilan belgilangan.

Mahalliy maxsus byudjetdan tashqari fondlar – mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tuziladi va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlarini qo'shimcha pul mablag'lari bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Ularga:

- mahalliy hukumat organlarining maxsus mablag'lar bo'yicha hisobraqami;
- "Mahalla fondi" kabilar kiradi.

Xorijiy davlatlarda mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoridagi maxsus pul fondlari soni va mahalliy moliya tizimidagi salmog'i ancha yuqori bo'lib, ular avtonom mustaqillikka egaligi, markaziy hukumat tomonidan qattiq nazoratga tortilmasligi, doimiy yoki vaqtinchalik, ayrim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ko'zlab tuzilishi bilan harakterlanadi.

Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasi bo'lib, ikki pog'onali byudjet tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. mahalliy byudjetlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Ular haqida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- mahalliy hokimiyat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etuvchi pul fondlarini shakllantirish;
- bu pul fondlarini hududiy iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalar o'rtasida qayta taqsimlash va ishlatish;
- mahalliy hokimiyatga bo'ysinuvchi korxona, tashkilot va muassasalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat olib borish.

Mahalliy byudjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tayanchi hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining deyarli yuz foizi mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladi.

Mahalliy byudjetlarga xos bo'lgan xususiyatlarning namoyon bo'lishi, ulardan milliy daromadni hududiy darajada taqsimlash va qayta taqsimlash hamda bu jarayonlarni nazorat qilish quroli sifatida foydalanish faqat inson faoliyati jarayonidagina mumkin bo'ladi. Bu byudjet mexanizmida o'z aksini topadi.

Bizningcha, byudjet mexanizmi byudjet siyosatini amalga oshirishning dastak va vositalari yig'indisi bo'lib, davlat tomonidan tashkil etiladi va byudjet

munosabatlarini davlat oldida to'rgan ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni bajarishga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida mahalliy byudjetlarning ahamiyati ularning xarajatlar qismida yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, bugungi kunda hududiy iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmani saqlash va rivojlantirish, aholiga turli ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish, aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruv organlarini saqlash kabi vakolatlar mahalliy hukumat organlari zimmasiga yuklatilgan. Bu vakolatlarni bajarish esa mahalliy byudjetlardan muayyan sarf-xarajatlar qilishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mahalliy byudjetlarning mustaqilligi va barqarorligini ta'minlashda quyidagi huquqiy asoslar tashkil etadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Byudjnt kodeksi"
3. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining "Soliq Kodeksi"
5. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni
6. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni
7. O'zbekiston Respublikasi VMning 1999-yil 3-sentabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag'lar bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori
8. O'zbekiston Respublikasi VMning 2002-yil 5-dekabrdagi 610-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2005-yilgi davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risida"gi qarori
9. "Byudjetda ko'zda tutilgan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash va byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida" 2005-yil 2-yanvardagi buyrug'i
10. O'zbekiston Respublikasi Vmning 2005-yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi 244-son qarori

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 14-dekabrdagi qabul qilingan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga byudjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi." Jamlangan byudjetning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim rol oynaydi.

1.3. Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash-ning xozirgi davr muammolarining o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yuzasidan islohotlar quyidagi dolzarb masalalarni O'z ichiga olishi lozim: mahalliy byudjetlarning O'z va biriktirilgan daromadlarini oshirish; davlatning markazlashgan moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish; byudjetlararo munosabatlarni mukammallashtirish orqali mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish; byudjet jarayoni va yangi byudjet tasnifini takomillashtirish; hududiy iqtisodiyot muammolarini ijobiy hal etish imkonini beruvchi mahalliy byudjetlar samarali ijrosini ta'minlash mexanizmini yaratish

Mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini baholash va ularni oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, birinchidan, O'zbekiston Respublikasining byudjetlararo munosabatlarning samarali tizimini shakllantirish uchun zarur bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy byudjetlarni "moliyaviy tenglashtirish siyosati"ni amalga oshirish uchun zarurdir.

Byudjetlararo munosabatlarda faqatgina hududlar soliq faoliyatigagina asoslanishi yoki moliyaviy imkoniyatning qolgan manbalariga u qadar e'tibor bermaslik byudjet siyosatining qisqa muddatli va fiskal tabiati bilan belgilanuvchi tor doirasini xususiyatlaydi.


Mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini baholash va ularni mustakilligini oshirish yo'nalishlarini belgilash, birinchidan, O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar daromadlari bazasi shakllanishining amaldagi mexanizmini tahlil qilish uchun zarur bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy byudjetlarni boshqarish davlat siyosatidagi O'zgarishlarni asoslash hamda uning istiqboldagi vazifalarini belgilash uchun ham zarurdir.

O'zbekiston Respublikasida byudjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit byudjet va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta mas'uliyatli vazifalarni samarali bajarilishini talab etmoqdaki, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko'rsatish muhimdir: birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot doirasidagi muammolarning keskinlashuviga yo'l qo'ymaslik va ikkinchidan, mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ularni imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligi. Ushbu har ikki jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini ijobiy hal etishga imkon beradi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Joylarda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot muammolarini muvaffaqiyatli va moliyaviy inqirozlarsiz hal etish mahalliy byudjetlar daromad bazasining barqarorligini, shu jumladan, ulardagi investitsion, soliq, valyuta imkoniyatlarining bir tekis taqsimotini talab etadi va bu nisbatdoshlikda hududlarning iqtisodiy faolligi rag'batlantirilishi lozim».⁶

Mamlakatimiz moliya-byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hududiy iqtisodiyot muammolarining keskinlashuvi sharoitida mahalliy byudjetlar

⁶ Karimov I.A. Erishgan marralarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidan izchil borish – asosiy vazifamiz. – T.: "O'zbekiston", 2004. 36b.

daromadlari barqarorligini ta'minlash zaruriyatini ko'rsatmoqda. Bu munosabatlarda solik siyosatining xam aloxida ahamiyati bor. Amerikalik iktisodchi olim A.Laffer tomonidan berilgan muloxozalariga kura korporatsiyalar daromadiga soliklar stavkasini xaddan tashkari oshirish ularning kapital kuyilmalariga bulgan ragbatini susaytiradi, fantexnika tarakkiyotini rivojlanishiga salbiy ta'sir kursatadi, iktisodiy usishni sekinlashtiradi va bular oxir okibat davlat byudjeti tushumlariga salbiy ta'sir kursatadi. Davlat byudjetining daromadlari va solik stavkalari usishi urtasidagi bogliklikni kuyidagi grafikda tasvirlash mumkin.



Grafik tik ukida solik stavkasi (V), yotik uqida-davlat byudjetiga tushumlar (R) aks etgan. Solik stavkasining optimal mikdori (V_1) davlat byudjetiga eng yukori tushum (R_1)ni taminlamaydi. Soliklarni yanada oshirganda ishlashga va tadbtrkorlikka kizikish susayadi. Uzoq muddatli solik stavkalarini pasaytirish jamgarmalar, investitsiyalar, bandlikning ortishi orkali solik undiriladigan yalpi daromad xajmining usishini ta'minlaydi. Natijada solik tushumlari summasi kupayadi va davlat daromadlari xajmi ortadi.

Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini baholash, birinchidan, O'zbekistonda byudjetlararo munosabatlarning samarali tizimini shakllantirish uchun zarur bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy byudjetlarni "moliyaviy tenglashtirish siyosati"ni amalga oshirish uchun zarur. Byudjetlararo munosabatlarda faqatgina hududlar soliq faoliyatigina asoslanishi yoki moliyaviy imkoniyatning qolgan manbalariga u qadar e'tibor bermaslik byudjet siyosatining qisqa muddatli va fiskal tabiati bilan belgilanuvchi tor doirasini xususiyatlaydi.

Hozirgi kunda ko'pchilik iqtisodchilar hamon moliyaviy imkoniyatni moliyaviy resurslar bilan birday talqin etmoqdalar. Bizning fikrimizcha, ushbu tushunchalar mazmuni bir-biriga yaqin bo'lsada, ular birday narsa emas. Hududning moliyaviy resurslari deganda, shu hududning moliyaviy imkoniyatidan foydalanilayotgan bir qismi deb, ya'ni hududda mavjud.

Mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini baholash va ularni oshirish yo'nalishlarini belgilash, birinchidan, O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlar daromadlari bazasi shakllanishining amaldagi mexanizmini tahlil qilish uchun zarur bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy byudjetlarni boshqarish davlat siyosatidagi o'zgarishlarni asoslash hamda uning istiqboldagi vazifalarini belgilash uchun ham zarurdir.

Xududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlashning ilmiy tadqiq etilishi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu zaruriyatni ongli tarzda mushohada etgan holda mahalliy byudjetlarning mustakilligi va barkarorligini oshirish borasida quyidagi yo'nalishlarni alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir:

1. Mahalliy byudjetlar imkoniyatlarining mazmuni, omillari va hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatini tadqiq etish.

2. Yangi sharoitlarda mahalliy byudjetlarni «moliyaviy tenglashtirish» siyosati orqali boshqarishning dastaklari amal qilishi xususiyatlarini tahlil etish.
3. Byudjetlararo munosabatlar amaldagi mexanizmida mahalliy byudjetlar imkoniyatlari shakllanishining omilli, kompleks tahlilini amalga oshirish.
4. Mahalliy byudjetlar rivojlanish istiqbollarini belgilashda ular imkoniyatlarini oshirish yoʻnalishlari boʻyicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish.

II Bob. Qarshi tumani moliya bo'limi mahalliy byudjetlar tarkibi va undan foydalanish xolati taxlili.

2.1. Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarining xozirgi xolati va dinamikasi taxlili.

Har qanday iqtisodiy holatga qaramay davlat o'z mavjud bo'lishining eng muhim omili uning o'z oldida turgan vazifalarining bajarish uchun yetarli bo'lgan moliyaviy mablag'ga ega bo'lishidadir. Bu masalada davlat byudjeti tizimining muhim bo'g'ini bo'lgan mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishning o'ziga xos jixatlari mavjud. Bu o'ziga xos xoslik mahalliy byudjetlarning o'z hududlari doirasida amalga oshiriladigan vazifalaridan kelib chiqadi.

Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida umumdavlat pul resurslarini taqsimlash asosida mahalliy byudjetlarning mustaqillik prinsiplari, ularning davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlash prinsipi, manbalar va daromadlarini hududiy shakllantirish prinsiplari yotadi. Ushbu prinsiplardan kelib chiqib mahalliy byudjetlarning daromadlari biriktirilgan va tartibga soluvchi daromad manbalari hisobiga shakllantiriladi.

Biriktirilgan daromadlar – bu byudjet huquqi subyektiga tegishli mablag'dir, ya'ni yuqori byudjetni chetlab o'tib, doimiy asosda, qat'iy belgilangan ulushda yoki to'liqligicha tegishli byudjetga kelib tushuvchi mablag'lardir. Biriktirilgan daromadlar asosini mahalliy soliq va yig'mlar, qat'iy ulushda va doimiy asosda mahalliy byudjetlarga berilgan umumdavlat soliqlardan o'tkazmalar tashkil etadi. Davlat mahalliy hukumat organlariga ular qarmog'idagi biriktirilgan daromadlarning ortiqcha mavjudini moliyaviy resurs sifatida, ularga biriktirilgan vazifalarni bajarish uchun taqdim etadi. Shu yo'l bilan davlat turli darajadagi byudjetlarni boshqarib turadi, ularning daromad va xarajatlarini balanslashtiradi.

Shundan kelib chiqib, mahalliy byudjetlar daromadlarini o'z daromadlari, yuqori byudjetdan beriladigan daromadlar va moliyaviy yordamlar ko'rinishida keltirish mumkin.

Mahalliy byudjet daromadlarining asosiy qismini soliqlar tashkil etadi. Davlat miqiyosida soliqlar YAIMning deyarli uchdan bir qismini qayta taqsimlab, byudjetga tushiradi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiradi. Keyingi yillarda resurs soliqlarining salmog'i ancha oshmoqda. Bu esa yer, suv va boshqa resurslardan samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Mahalliy byudjetlarning daromad qismini shakllantirishning hozirgi paytda amalda bo'lgan tartibi quyidagi kamchiliklarning oldini olishga imkoniyat bermaydi:

- mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yig'iladigan moliyaviy mablag'lar, xarajatlarni qoplash uchun yetarli bo'lmaydi, bu narsa mahalliy infratuzilmanirivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada pasaytiradi;

- byudjet xarajatlarining yetmaydigan qismini respublika byudjeti hisobidan to'ldirish mahalliy hokimiyatlarning markaziy organlariga nisbatan bo'lgan qaramligini kuchaytiradi;

- mahalliy hokimiyat organlari mablag'larga bo'lgan obyektiv va asoslangan ehtiyojlardan kelib chiqib, daromadlarning qo'shimcha manbalarini izlashga bo'lgan mustaqillikni ma'lum darajada yo'qotadi.

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishning yangi modeliga bo'lgan zaruriyat byudjetni qayta o'zgartirishga olib kelgan. Davlat boshqaruvi tamoyillari o'zgarishlari bilan birga hozirgi paytda maqsadlar hamda byudjetni hududiy tartibga solish tamoyillarining o'zgarishlari bilan bog'liqdir.

Mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan maqsadli foydalanishdan manfaatdorlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy rezervlarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, umuman O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari tomonidan xarajatlarni amalga oshirish uchun daromadlarga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun mahalliy byudjet daromadlarini shakllanishining amaldagi xolati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini taxlil qiladigan bo'lsak, avvalombor, daromadlarning shakllanishiga e'tibor berish lozim. Mahalliy byudjet daromadlarining manbalari tarkibi quyidagi chizmada berilgan.



O'zbekistonning yagona soliq tizimi yaratilib, unga umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlar hamda yig'imlar kiritildi. Mahalliy soliqlar va yig'imlar: mol-mulk solig'i, yer solig'i, kichik biznes uchun yagona soliq, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, savdo huquqi uchun yig'imi jumladan, alohida tovarlar turlarini sotish uchun litsenziya yig'imi, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik hamda jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'im, avtotransportning vaqtinchalik turar joy yig'imi va solig'i.

Mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari shaharlarda 30-40 foizni, qishloq joylarda 10-20 foizni tashkil etadi, qolgan qismini ajratma daromadlar tashkil etadi. Albatta, mahalliy iqtisodiyot qanchalik rivojlansa daromadlar ko'payadi, mahalliy byudjetning o'z daromadlari qancha ko'paysa, uning imkoniyati shunchabarqarorlashadi. Mahalliy byudjetning o'z daromadlari asosan mahalliy soliqlar va yig'imlar, umumdavlat soliqlarning ajratmalaridir. Kuyidagi jadvalda Karshi tuman mahalliy byudjeti daromadlari xakida ma'lumo keltirilgin

jadval.

Karshi tumani mahalliy byudjetining daromad ko'rsatkichlari miqdori (so'mda)

№	Daromadlar tarkibi	2011 yil	2012 yil	2013 yil
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	195 285 479	240 254 892	287 200 233
2	Foyda solig'i	52 992 585	83 282 503	71 790 717
3	Jismoniy shahslar daromad solig'i	83 029 636	49 342 638	119 234 524
4	Yer solig'i	16 718 593	19 241 402	28 121 758
5	Yagona soliq	21 573 319	26 491 896	33 531 378
6	Yuridik shahslar mol-mulkiga solinadigan soliq	32 919 811	45 912 360	71 823 122
7	Jismoniy shahslar mol-mulkiga solinadigan soliq	926 905	4 023 003	5 777 330
8	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shahslarga soliq	3 884 109	5 868 845	8 945 232
9	Suv resurslari uchun soliq	2 155 043	2 962 490	3 713 397
10	Obodonlashtirish solig'i	56 314 573	76 428 202	92 265 828
11	Davlat boji	1 807 446	2 743 496	4 267 709
12	Bozorlar daromadidan tushum	881 335	1 290 838	3 925 635
13	Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo yig'imi	315 020	488 241	767 164
14	Qimmatbaxo metallar va toshlardan tayyorlangan buyumlar yig'imi	5 999 928	4 335 189	13 013
15	Boshqa soliq va daromadlar	12 802 113	12 323 440	14 435 368
16	Benzin, dizel yoqilg'isi soliq	10 473 660	14 457 305	20 106 652
17	Yig'imlar va turli soliqsiz daromadlar	1 242 861	3 233 636	4 476 497
	Daromadlar jami	501 625 713	594 031 687	774 976 588

Karshi tumani mahalliy byudjeti daromatlari tahlili shuni ko'rsatadiki, daromatlarni shakllantirishda asosiy manba bo'lgan to'g'ri va egri soliqlardagi o'zgarishlar ayniqsa e'tiborga loyiqdir. YA'ni bu soliqlar bo'yicha 2013 yil va 2010 yillar o'zaro nisbati o'rganilganda, 2013 yilda 2010 yilga nisbatan asosan miqdorida va ulush jihatdan ham jami 418613 so'mga yoki 2,2 martaga o'sganligini kuzatish mumkin.

Masalan, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 138293,6 ming so'mga yoki 2 martaga, yer solig'i bo'yicha 14556,6 ming so'mga yoki 2,1 martaga, yuridik shahslar mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha 35955,4 ming so'mga yoki 2,1 martaga, jismoniy shahslar mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha 5042,1 ming so'mga yoki 7,4 martaga, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmanirivojlantirish solig'i bo'yicha 76748,3 ming so'mga yoki 5,9 martaga, Davlat boji bo'yicha

3238,4 ming so'mga yoki 4,1 martaga, bozorlar daromadidan tushum bo'yicha 3222,6 ming so'mga yoki 5,6 martaga, alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im bo'yicha 522,7 ming so'mga yoki 3,3 martaga o'sganligida ko'rish mumkin.

**Mahalliy byudjetdan 2011-2013 yillarda amalga oshiriladigan
ishlar uchun xarajatlar tugrisida ma'lumot**

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
		mln.so'm	Jamiga nisbatan % hisobida	mln.so'm	Jamiga nisbatan % hisobida	mln.so'm	Jamiga nisbatan % hisobida
1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xara-jatlari – jami.	1 73 8908700	50,20	2 205 348900	51,13	2 885 872400	54,10
	shu jumladan:						
1,1	Maorif	99150290 0	57,02	1 285 078500	58,27	1 740 447700	60,31
1,2	Sog'liqni saqlash	37784690 0	21,73	494 675100	22,43	636 085100	22,04
1,3	Madaniyat va sport	59381600	3,41	66 179700	3,00	71 502500	2,48
1,4	Fan	17931400	1,03	22 549300	1,02	28 923200	1,00
1,5	Ijtimoiy ta'minot	13 873200	0,80	16 872400	0,77	20 688400	0,72
1,6	Aholiga ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar bo'yicha bahosidagi farqni byudjetdan qoplash.	15 979900	0,92	13 160900	0,60	14 463800	0,50
1,7	Oilaga (bolalik oilalar qo'shilgan holda) ijtimoiy nafaqa berish.	212 864400	12,24	282 554800	12,81	350 020600	12,13

Keltirilgan -jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ijtimoiy-madaniy soha xarajatlari 2013 yilda 2011 yilga nisbatan 4.1 foizli punktga, iqtisodiyot xarajatlari 3,0 foizli punktga, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari xarajatlari 0,3 foizli punktga o'sgan. Davlat boshqaruv organlarini xarajatlari 0,1 foizli punktga, Aholi turmush farovonligini oshirish xarajatlari 9,1 foizli punktga pasaygan.

2.2 Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarining taqsimlanishi xolati taxlili.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar joriy etilgan paytdan shu kunga qadar ular tarkibida o'zgarishlar nafaqat son jihatdan, shuning bilan birgalikda, mohiyat jixatidan ham keng ko'lamli o'zgarishlarga erishildi. Bugungi kunga kelib ularning yangi turlari joriy etildi va amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda. Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki mahalliy byudjetlar daromadlari Davlat byudjeti daromadlarida yuqori salmoqqa ega. Kuyidagi jadvalda Karshi tuman mahalliy byudjet daromadlarida mahalliy soliklarning salmogi keltirilgan

Karshi tuman mahalliy byudjet daromadlarida mahalliy soliklarning salmogining taxlili, % larda

Kursatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Respublika mahalliy byudjeti daromadlari jami	100	100	100	100
Jumladan: jami maxalla'iy soliklar	35,8	36,8	37,7	38,2

Karshi tuman mahalliy byudjeti resurslarida mahalliy soliklar ulushini taxlil kiladigan bulsak, mahalliy soliklar ulushining usib borishini kurishimiz mumkin. Bu kursatkich 2012 yilda 37,7% yoki 2010 yilga nisbatdan 1,9%ga, 2011 yilga nisbatdan 0,9% ga usgan. 2013 yilda esa 38,2% ni tashkil kilgan.

Respublikamiz soliq tizimida mavjud mahalliy soliq va yig'imlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarning ayrimlari sifatida quyidagilarni qayt etish mumkin:

- mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy davlat hokimiyati idoralari tasarrufida bo'lgan hududlar ehtiyoji uchun ishlatiladi;
- mahalliy soliqlarning asosiy qismi mahalliy byudjetlarning bevosita o'zlari tomonidan joriy etiladi;
- mahalliy soliqlar va yig'imlar ning huquqiy jixatdan tartibga solishda mahalliy byudjetlarga bir qadar vakolatlar berilgan bo'lsada, respublika qonunchiligi bilan ham hisoblashishini talab etadi.

Shuningdek, mahalliy soliq va yig'imlarning muxim xususiyatlaridan biri, ularni belgilash usuliga ko'ra ikki guruxga, yani respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan va mahalliy davlat hokimiyati idoralari qonunchiligi bilan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'imlarga bo'linishidir.

Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlar va yig'imlarni byudjetga o'z vaqtida to'liq o'tkazilishini ta'minlash to'lov intizomini mustahkamlashni talab etadi. Bu vazifaning to'liq hal etilmaganligi soliq siyosati ta'sirchanligi va samaradorligining past ekanligidan, soliqlarning o'z funksiyalarini to'liq bajarmayotganligidan dalolat beradi.

Davlat byudjeti daromadlariga ta'sir qiluvchi omillar juda ham ko'p, ularga quyidagilarni misol qilish mumkin:

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ya'ni yalpi ichki mahsulot hajmi, narxlarning o'sish darajasi, aholining ish bilan bandligi hamda aholi daromadlari;

- davlatning fiskal siyosati, ya'ni soliq stavkalarini o'zgartirish, ular bo'yicha imtiyozlar berish, xarajatlarni kamaytirish yoki ko'paytirish;

- boshqa omillar.

Davlat byudjeti to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilmasligi davlat uchun zarur bo'lgan daromadlarning o'z vaqtida olinmasligiga va buning natijasida davlat xarajatlarini moliyalashtirishda jiddiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Byudjetga to'lovlarning to'lov intizomini mustahkamlash yo'li bilan o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash masalasi ilmiy jihatdan o'zining to'liq yechimini topmagan desak bo'ladi.

Bugungi kunda mahalliy byudjetlar daromadlarini soliq yukini o'stirish hisobiga ko'paytirish yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun solik imtiyozlarini qisqartirish va byudjet muolajalarini takomillashtirish, shuningdek, mahalliy va umumdavlat soliq va yig'implarni to'plashni ta'minlaydigan to'lov intizomiga rioya qilish hisobiga mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'paytirish mumkin.

Ma'lumki, respublikamizdagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning rivojini mahalliy byudjetlar xarajatlari qismida o'zining yorqin ifodasini topadi. Mahalliy xokimiyat organlarining asosiy vazifasi shu mintaqadagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat. Asosan, yangi tumanlarda aholi sonining o'sishi, turar joy-kommunal xo'jalikni rivojlantirish tadbirlarini amalga oshirish mahalliy byudjetlar xarajatlarini o'sishini talab etadi. Mahalliy byudjet xarajatlarning o'sishi yangi qurilishlar qurilishi bilan, turar-joy va madaniy-maishiy obyektlarni saqlash xarajatlarini o'sishi bilan bog'liq bo'ladi.

Mahalliy byudjetlar orkalimahalliy xududlarni ijtimoiy-iktisodiy jixatdan rivojlantirishni moliyaviy manbalar bilan ta'minlab boriladi. Davlat byudjeti xarajatlarining tarkibida esa mahalliy byudjet xarajatlarining solmogi oshib bormokda, ya'ni u 1991 yilda 48,2 % dan 2013 yil 55 % ga yetdi. Buni quyidagi jadvalda kurishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlari tarkibida mahalliy byudjet xarajatlarining salmogi

Kursatkichlar	2011 y	2012 y	2013 y
Davlat byudjeti xarajatlari	100	100	100
Mahalliy byudjet xarajatlari	55,4	55	55

Jadval ma'lumotlaridan kurinib turibdiki, 2011 yilda davlat byudjeti xarajatlari 55, 4 %ni, 2013 yilda esa 55 % ni tashkil kilgan

Aytib o‘tish kerakki, alohida mahalliy byudjetlarning xarajatlar tarkibi bir xil bo‘lmaydi va shu mintaqadagi turli darajada bo‘lgan xo‘jalik va idoralarning hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun viloyat, shahar, tuman boshqaruv organlariga bo‘ysinadigan mahalliy sanoat, turar joy-maishiy xo‘jalik, savdo muassasalarining mahalliy byudjet xarajatlaridagi salmog‘i anchagina. Viloyat, shahar, tuman boshqaruv organlariga asosan ijtimoiy-madaniy muassasalar bo‘ysinadi, shundan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjet xarajatlarining 50 foizi ijtimoiy-madaniy tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Qoraqalpogiston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo‘ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi:

- => fan, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saklash, jismoniy tarbiya va sport;
- => ijtimoiy ta’minot;
- => aholini ijtimoiy himoyalash;
- => Qoraqalpogiston Respublikasi davlat xokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat xokimiyati organlari faoliyatini ta’minlash;
- => iqtisodiyot turi tarmoqlarining Qoraqalpogiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjet tashkilotlarini saqlash;
- => qonun xujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarni amalga oshirish;
- => qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirish rejasini va byudjet majburiyatlari limitini byudjet mablag‘larini taqsimlovchilariga va byudjet mablag‘i oluvchilariga Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi, vazifa jihatidan tasnifi, tashkiliy tasnifi ko‘rsatkichlari ko‘rsatilgan holda, Davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirish rejasini va byudjet majburiyatlari limitini to‘g‘risidagi bildirishnoma shaklda yetkazishni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kuyidagi jadvalda Karshi tumani mahalliy byudjetidan amalga oshiriladigan ishlar uchun xarajatlar rejasini keltirilgin.

Mahalliy byudjetdan 2011-2013 yillarda amalga oshiriladigan ishlar uchun xarajatlar tugrisida ma’lumot

№	Ko‘rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
		mln.so‘m	Jamiga nisbatan % hisobida	mln.so‘m	Jamiga nisbatan % hisobida	mln.so‘m	Jamiga nisbatan % hisobida
1	Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarini – jami.	1 73 8908700	50,20	2 205 348900	51,13	2 885 872400	54,10
	shu jumladan:						
1,1	Maorif	991502900	57,02	1 285 078500	58,27	1 740 447700	60,31

1,2	Sog'liqni saqlash	37784690 0	21,73	494 675100	22,43	636 085100	22,04
1,3	Madaniyat va sport	59381600	3,41	66 179700	3,00	71 502500	2,48
1,4	Fan	17931400	1,03	22 549300	1,02	28 923200	1,00
1,5	Ijtimoiy ta'minot	13 873200	0,80	16 872400	0,77	20 688400	0,72
1,6	Aholiga ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar bo'yicha bahosidagi farqni byudjetdan qoplash.	15 979900	0,92	13 160900	0,60	14 463800	0,50
1,7	Oilaga (bolalik oilalar qo'shilgan holda) ijtimoiy nafaqa berish.	212 864400	12,24	282 554800	12,81	350 020600	12,13

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki davrida ham, islohotlarning hozirgi bosqichida ham aholining daromadlarini hisobga olish va tibbiy xizmatga bo'lgan talabni qondirishni ijtimoiy himoyaning bir turi sifatida qarashimizga to'g'ri keladi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish va bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni o'z vaqtida va to'liq moliyaviy ta'minlash zarurdir.

Yurtimizda sog'liqni saqlash sohasi oldida ikki asosiy vazifa turibdi, bir tomondan, tarmoq moliyaviy asosini kengaytirish zarurati, ikkinchi tomondan, sog'liqni saqlashni intensiv rivojlanish usuliga o'tkazishdir. Tarmoqning tibbiy sug'urta tamoyili sog'liqni saqlashning iqtisodiy tayanchlari to'la ro'yobga chiqarilishi uchun sharoit yaratish, tarmoqni moliyalash manbalarini kengaytirishga qaratilgan sog'liqni saqlashni moliyaviy zaxiralarini shakllantirish mexanizmini yaratish imkonini beradi, shuningdek, bir qator muammolar-ijtimoiy, siyosiy, xuquqiy, iqtisodiy muammolar hal etilishiga yordam beradi.

Sog'liqni saqlashni moliyaviy ta'minlashning amaldagi tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishi bo'lib, tarmoqni moliyaviy zaxiralarni shakllantirish ustidan nazorat samaradorligini oshirish ko'rinadi. Bunday sharoitda faoliyat ko'rsatish xo'jalik hisobida tibbiy yordam ko'rsatishning yanabir asosiy tamoyillardan biri bo'lgan o'z-o'zini moliyalashtirish tartibini hayotga tatbiq qilishdan iborat.

Mazkur tartib asosida mustakil mehnat faoliyati ko'rsata oladigan sog'liqni saqlash muassasalari endilikda to'liq ravishda o'z faoliyatining tibbiy va iqtisodiy natijalari uchun o'zlari javobgar bo'lib qoladilar. Chunki, endilikda tibbiy muassalarning iqtisodiy sohadagi pirovard natijalari ularning sifatli tibbiy yordam ko'rsatishlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoladi.

Davlat tomonidan sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish samaradorligini oshirish bu sohani tarkibiy tuzilishini o'zgartirishni takozo qiladi. Bu borada ikki yo'nalishni ko'rib chiqish mumkin. Birinchisi-mablag'larni tibbiy

xizmatning eng samarali va kam xarajatli shakllariga qayta taksimlash, ya'ni birinchi bo'g'in-ambulator davolash va poliklinikalarni rivojlantirishga yo'naltirish. Ikkinchisi-sog'liqni saqlash sohasiga byudjet mablag'larini umumlashtirish. Sog'liqni saqlash sohasini rivojlantirishga kompleks yondashuv, shuningdek, tarmoq moliyaviy asosini shakllantirishga moliyalashtirishning turli manbalarini - korxona, tashkilot va aholi, byudjet mablag'larini jalb etish zaruratini nazarda tutadi, bu jamiyat qayta ishlab chiqarish qatnashchilari manfaati bilan bog'liqdir.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish asosiy bo'limlaridan biri-tarmoqni moliyalashtirishning yangi modelini ishlab chiqishdan iborat. Sog'liqni saqlashni moliyaviy ta'minlashni mo'tadil-lashtirish bo'yicha vazifalarni hal etish, nafaqat nazariy tomondan tan olinishi bilan, balki salomatlik muhofazasiga to'laonli yondashuv amaliyotida ro'yobga chiqarilishi kerak. Kuyidagi jadvalda Karshi tumanida mahalliy byudjetdan soglikni saklash uchun ajratilgan mablaglar tugrisida ma'lumot keltirilgan.

**Davlat byudjetidan 2011-2013 yillarda sog'liqni saqlash uchun
ajratilgan mablag'lar (Ming sum)**

№	Tadbirlar nomi	2012 y	Res byud	Max byud	2013 y	Res byud	Max byud	2012 yilga nisbatdan % da
I	Xarajatlar	3491,8	1172	2319,8	6070,1	2231,8	3838,3	173,8
1	Tibbiyot xodimlari va xaydovchilarning ish xakini fondini oshirish	784,2	0	784,2	1926,6	0	1926,6	245,7
2	TTYO xizmatini avtotrans-porti, aloka xizmati. yumshok mebillar bilan jixozlash	1747,8	1172	575,8	2927,6	2231,8	695,8	167,5
3	TTYO xizmati uchun berilgan obyektlarni kapital ta'mirlash uchun	959,8	0	959,8	1215,9	0	1215,9	126,7
II	Kasalxonalar, poliklinikalar, ambulatoriya va boshka tibbiyot muassasalarini davolash va tashxiz jixozlari bilan yangilash	7713,9	3466,9	4247	8099,7	3640,3	4459,4	105,0
III	"Ona va bola skriningi" markazi uchun laboratoriya jixozlarini sotib olish	1331,4	1331,4	0	1995,2	1995,2	0	149,9
IV	Respublika tibbiy markazlarini zamonaviy jixozlar bilan ta'minlash	858,6	858,6	0	901,5	901,5	0	105,0
V	Kasalxonalar, oliklinika-lar, ambulatoriya va boshka tibbiyot	7091,6	1999,8	5091,8	7446,2	2099,8	5346,4	105,0

	muassasalarida kapital ta'mirlashni utkazish							
VI	Uz.R. ning kafolati asosida chet el kompaniyalaridan tugridan-tugri shvrtnomalar asosida kechiktirish sharti bilan medikomentlar sotib olish	0	0	0	5470	5470	0	
VI I	"Salomatlik-2" proyeksi buyicha bojxona tulovlari, deklaratsiya KKS uchun xamkorlarga moliyalashtirish	0	0	0	1104,1	1104,1	0	
VI II	XXRning krediti buyicha yuk xati xarajatlari	0	0	0	780,5	780,5	0	
	Xammasi:	20487,3	8828,7	11658,6	31867,3	18223,2	13644,1	155,5

Demak, sog'liqni saqlash tizimi uchun ajratiladigan mablag'larni sarflashda, profilaktika tadbirlari ustivor bo'lishi kerak. Bu sohada ambulatoriya-poliklinikalar xarajatlari salmog'ini oshirish, qishloq feldsherlik punktlarining rolini kuchaytirish, yakka vrachlik faoliyatini yanada rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, onalar va bolalar sog'lig'ini himoya dasturlarining moliyalashtirish ustuvor yo'nalishda bo'lishi kerak.

Mahalliy byudjet xarajatlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni tegishli daromadlar bilan ta'minlanish masalalari dolzarbdir. Ayrim mintaqa xarajatlari bilan mintaqalarning YAIM ni yaratishda hissalarini qiyoslaydigan bo'lsak, unda solishtirma hissasining nomuvofiqligi ko'zga tashlanadi.

Byudjet xarajatlarini kassali ijro etish bosqichda belgilangan tartibda va chegaralangan mablag'lar doirasida, tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan qabul qilingan byudjet majburiyatlarini to'lovi amalga oshiriladi. Davlat byudjetidan majburiyatlarning to'lovi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan byudjet mablag'i oluvchilarining taqdim qilgan va byudjet majburiyatlarni ijrosini tasdiqlovchi xujjatlar asosida xarajatlarni amalga oshiriladi. Davlat byudjeti ijtimoiy funksiyalarining qisqarishi to'g'risidagi xulosa ijtimoiy himoya xarajatlarining dinamikasidan kelib chiqadi.

Karshi tumanida ijtimoiy soha xarajatlarining 80% foizi va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarining 100% foizi mahalliy byudjetlardan amalga oshiriladi. Kuyidagi jadvalning taxlil natijalari shuni kursatadiki Karshi tumanida 2006-2013 yillar davomida byudjet xarajatlarining tuman YAIM tarkibidagi ulushi 36,3% dan 25,0% gacha kamaygan. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari salmogi esa 17,6% dan 9,7% ga tushgan

**Karshi tumanida ijtimoiy soxa xarajatlarining tuman YAIM
tarkibidagi salmogi**

(foiz xisobida)

Kursatkichlar	2006 y	2007 y	2008 y	2009 y	2010y	2011 y	2012 y	2013 y
YAIM	100	100	100	100	100	100	100	100
Byudjet xarajatlari,	36,3	32,1	34,4	30,7	29,0	26,7	25,8	25,0
Shundan:								
Ijtimoiy-madaniy tadbir jarajatlari	12,6	11,5	12,3	11,7	10,4	10,1	9,8	9,7
Maorif	7,7	7,3	7,7	7,4	6,7	6,8	6,7	6,6
Soglikni saklash	3,6	3,1	3,1	2,8	2,6	2,6	2,5	2,5
Fan. Madaniyat. Axborot xarajatlari	0,9	0,7	0,9	0,7	0,6	0,6	0,5	0,5
Ijtimoiy ta'minot	0,5	0,4	0,4	0,8	0,4	0,1	0,1	0,1

Mahalliy byudjetlarni asosiy qismi iqtisodiyot va ijtimoiy-tadbirlarni moliyalashtirish yo'naltiriladi. Tasdiqlangan byudjetda ko'zda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida va to'la moliyalashtirishni amalga oshirish moliya organlarining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun moliyalashtirish yoki mablag' bilan ta'minlash va byudjet xarajatlarining tayinlanishi bo'yicha amalga oshirish, buxalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilish lozim bo'ladi.

Davlat byudjetidan moliyalashtirish (mablag' bilan ta'minlash) deganda byudjet mablaglarini boshqaruvchilarga tasdiqlangan byudjetda ko'zda tutilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun byudjetdan mablag' berish tushuniladi. Davlat byudjetidan moliyalashtirish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi:

◆◆◆ byudjetdan mablag' olish uchun tayinlash sertifikatini tuzish yo'li bilan kredit ochish;

◆◆◆ byudjetdan mablag' olish uchun tayinlash sertifikatini tuzmasdan to'lov topshiriqnomalarini tuzish yuli bilan mablag' o'tkazib berish.

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti bo'yicha byudjet mablag'larini bosh boshqaruvchilari bo'lib vazirliklar, idoralar va boshqa markaziy tashkilotlarning rahbarlari hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar bo'yicha byudjet mablag'larini bosh boshqaruvchilari bo'lib hokimiyatlarning boshqarmasi boshliqlari hisoblanadi.

Xukumatimiz tomonidan ijtimoiy jarayonlarni davlat, xo'jalik subyektlari va aholi o'rtasida mavjud bo'lgan iqtisodiy munosabatlar asosida muvofiqlashtirish bo'yicha muhim tadbirlar amalga oshirildi. Mustaqillik yillarida ijtimoiy soha o'z faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va bajaradigan vazifalari, tashkiliy tuzilishi, boshqarilishi va moliyaviy ta'minlanish mexanizmi bo'yicha tubdan o'zgardi. Respublikamizda keyingi yillar mobaynida ijtimoiy sohani rivojlanishini rag'batlantiruvchi muhim qonuniy xujjatlar qabul qilindi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 14-moddasida belgilab qo'yilganidek, «Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini

ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi». Respublikamizda yangi vazifalarni aniq belgilagan holda, mazkur sohaning boshqarish va moliyalashtirish tizimlari o‘zgartirildi. Kuyidagi jadvalda Karshi tumanida axolini ijtimoiy ximoyalash uchun ajratilgan mablaglar xakida ma’lumot keltirilgan.

Davlat byudjetidan 2011-2013 yillarda axolini ijtimoiy ximoyalash uchun ajratilgan mablaglar

(ming sumda)

Kursatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Axolini ijtimoiy ximoyalash	174249,6	219473,3	278372,3
Shu jumladan:			
Ijtimoiy axamiyatga ega xizmatlar urtasidagi farkni koplash uchun	25867,1	21779,5	15979,9
Nafaka va moddiy yordam	137814,2	163282,1	212864
Byudjetdan tashkari pensiya jamganmasiga dotatsiya			28600
Isitish mavsumiga tayyorgarlik		7659,2	3595,2
Bir martalik Davlat ragbatlantirish va mukofatlar tulovlari buyicha xarajatlar			

Jadval ma’lumotlaridan kurinib turibdiki, Karshi tumanida 2013 yilda 2011 yilga nisbatdan axolini ijtimoiy ximoyalash xarajatlari uchun 104122,7 ming sum, 2012 yilga nisbatdan 58899 ming sum kup mablag ajratilgan.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy ijtimoiy vazifalari quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

- => insonlarning moddiy va ma’naviy farovonligiga erishish;
- => kishilarning mehnat faoliyati jarayonida kamolotga yetishish;
- => ijodkor inson bo‘lishiga erishish;
- => kishilarning madaniy-maishiy hayot sharoitlarini yaxshilash.

Bu vazifalarni hal qilishda ijtimoiy sohani rivojlantirish va uning infratuzilmasini takomillashtirish asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Ijtimoiy soha - insonlarning turmush darajasini, aholi farovonligini, fuqarolarning iste’molini aniqlovchi hamda bevosita bir-biriga bog‘liq korxonalar, tashkilotlar va muassasalar majmuidir.

Ijtimoiy sohaning rivojlanishini baholovchi va tartibga soluvchi asosiy mezonlari uning asosiy vazifalarini aniqlaydi.

Jumladan:

- =>iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish;
- => inson potensialini saqlash va rivojlantirish;
- => jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlash va ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasida barcha sohalar kabi ijtimoiy sohalarda xam chukur o‘zgartirishlarni amalga oshirish hozirgi kunning asosiy talabidir. Ijtimoiy soha har qanday iqtisodiyotning jumladan, bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo‘lib, u bevosita insonlar hayoti va mehnati bilan chambarchas bog‘langan. Shuning uchun ham uning muammolari har qanday sharoitda, ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

2.3 Mahalliy byudjet mustakilligi va barkarorligini ta'minlashning muammolari

Soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari ham davlat uchun, ham bozor qatnashchilari faoliyat ko'rsatishi uchun sharoitni ta'minlashi kerak, shuning uchun soliq tizimidagi iqtisodiy islohatlarni davom ettirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda soliq islohatlarning ustivor yo'nalishlari mahalliy byudjetlar daromad bazasini ko'paytirishga qaratilgan bo'lishigina emas, balki ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun tadbirkorlarni va ishbilarmonlarini faolligini oshirish lozim.

Mahalliy byudjetlar daromad bazasini ko'paytirish uchun soliq islohatlarini yanada chuqurlashtirish lozim. Jumladan:

- soliq qonunlarini yanada aniqlashtirish, soliqqa doir xujjatlarini soddalashtirish maqsadida uni takomillashtirish;
- soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini kamaytirish;
- ayrim soliq to'lovchilar bilan bo'ladigan soliq munosabatlarda neytrallikni ta'minlash, qator soliq imtiyozlarini qayta ko'rib chiqish va bekor qilish, bir xil soliq bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish;
- qonun xujjatlariga rioya qilishda qattiq, tezkor nazoratni belgilash, fuqarolar va tashkilotlarni soliq to'lash bo'yicha mas'uliyatini oshirishdan iborat.

Iqtisodiyotimiz barqarorligi uning yo'nalishi, byudjet tizimining mustahkamligi bevosita moliya-soliq idoralari faoliyatining samaradorligiga bog'liqdir. Viloyatlarda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib sezilarli natijalarga erishilmoqda, ishlab chiqarish hajmlari barqarorlashib pul inflyatsiyasi pasayib bormoqda. Barcha sohalar qatori moliya-byudjet siyosatida ham tub o'zgarishlar amalga oshmoqda, shu bilan bir qatorda moliya tizimi xodimlarining vazifalari hamda mas'uliyatlari ham oshib bormoqda.

Mahalliy soliqlar bo'yicha «soliq boqimandaligi» muammosini yechish uchun:

- ◆ muddati o'tgan «soliq boqimandaligi»ni oshishigiga olib kelganda soliq to'lashni sxemalar qo'llash amaliyotidan voz kechish;
- ◆ katta qarzdorligi bo'lgan soliq to'lovchilar bilan soliq postlarini tashkil qilish, ma'muriy boshqaruv apparatiga soliq vakillarini kiritish bilan alohida shlar olib borish;
- ◆ soliqlar bo'yicha qarzlari juda ko'p bo'lgan sharoitda korxona va tashkilotlarga nisbatan bankrotlik muolajasini qo'llash;
- ◆ mulkdorlarni va muassasa rahbarlarini byudjetga soliq to'lash ma'suliyatini belgilash;
- ◆ «soliq boqimandaligi» ko'p bo'lgan taqdirda soliq to'lovchilarning mulklari yuzasidan alohida ishlar olib borishdan iborat.

Respublikamizda byudjet siyosatini olib borishda faqatgina soliq islohotlarini chuqurlashtirilmayapti, balki mahalliy byudjetlar tushumlarini ko'paytirishning boshqa yo'llari izlanmoqda.

Jumladan:

- mahalliy xokimiyat organlariga bo'ysinadigan korxona va tashkilotlarni xo'jalik faoliyatlarining iqtisodiy natijalari yaxshilanmoqda;

- mahalliy sanoat, qurilish, transport, savdo, maishiy xizmat tashkilotlari mahalliy xokimiyat organlariga bo'ysinmaydi, ya'ni alohida tarmoqlarni markazlashtirilgan holda boshqarishdan voz kechilmoqda;

- hukumat tomonidan mahalliy byudjetga dotatsiya ajratishning shartlari o'zgartirilishi mumkin;

- alohida mintaqalarni iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqqan holda, mahalliy zayomlar chiqarish va jismoniy va huquqiy shaxslarga sotish mumkin.

Soliq yig'ish jarayonini iloji boricha arzonlashtirish shundan iboratki, soliq yig'ishga davlat tomonidan ham, soliq to'lovchilar tomonidan ham iloji boricha kam sarf-xarajat bo'lishini ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasida buning uchun soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalarini, soliq to'lovchining xarajatlarini kamaytirish maqsadida soliqlarga doir axborotlar ishonchligini bilvosita nazorat qilish usullarini qo'llash yo'li bilan soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bilan bir qatorda soliq idoralari qoshida servis-markazlar tizimi, shuningdek, soliqqa tortish masalasi bo'yicha soliq idoralarining bepul maslahatlari tashkil etilgan.

Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining batafsil iqtisodiy tavsifini va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini, xususan bozor iqtisodining shakllanishidagi o'rni va ahamiyatini o'rganishga imkon tug'iladiki, bu holat O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar tasnifini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

III-bob. Mahalliy byudjetlar mustaqilligi va barqarorligini ta'minlashning xozirgi davr muammolarini bartaraf etishning ustivor yo'nalishlari.

Mahalliy davlat hokimiyat organlari byudjet daromadlarini oshirish va mavjud resurslardan oqilona foydalanishning optimal yullaridan foydalanishlari lozim. Moliyaviy sog'lom, yetarli miqdorda va balanslashgan byudjetni shakllantirish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari quyidagilarni amalga oshirishlari kerak:

- mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini oshirish;
- mahalliy byudjetlarning xarajat qismini qayta tarkibiy o'zgartirish.

Hozirgi kunda mahalliy byudjetlar daromadlarini nominal soliq yukini ko'paytirish orqali o'stirish imkoniyatlari deyarli yo'q. Shuning uchun ham mahalliy byudjetlar daromadlarini mavjud soliq imtiyozlarini qisqartirish va byudjet jarayonlarini takomillashtirish, shuningdek to'lov intizomiga rioya etish hisobigagina ko'paytirish mumkin. Bu esa mahalliy hamda to'lanayotgan umumdavlat soliq va to'lovlarini oshirish imkoniyatini beradi. Soliq siyosatining asosiy yo'nalishi bo'lib ham davlat uchun, ham xo'jalik subyektlari va aholi uchun maqbul fiskal shart-sharoitni ta'minlash hisoblanadi. Vatan taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish sharoitida soliq tizimini isloh qilishning ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lib, nafaqat mahalliy byudjet daromadlarini ko'paytirish, balki ishlab chiqarishni jonlantirish uchun tadbirkorlik va ishbilarmonlik faolligini ta'minlash ham xizmat qilishi zarur. Mahalliy byudjetlar daromadlar qismini ko'paytirish uchun soliq sohasida islohotlarni o'tkazish katta ahamiyat kasb etadi, u o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

- soliq, qonunchiligini soddalashtirish maqsadida uni takomillashtirish, soliq qonunlariga yanada oydinlik kiritish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq stavkalarini kamaytirish, ayrim soliq to'lovchilarga nisbatan soliqlar neytralligini ta'minlash;

- ayrim soliq imtiyozlarini ko'rib chiqish va bekor qilish;
- bir xil bazaga ega soliqlarni unifikatsiyalash;
- soliq qonunchiligiga rioya etish ustidan qattiq operativ nazorat o'rnatish, «yashirin» iqtisodiy operatsiyalarni oldini olish; soliq to'lashdan bosh tortgan fuqarolar va korxonalar mas'uliyatini oshirish;

- soliq to'lovchilarning o'z vaqtida amalga oshirmagan to'lovlari, ya'ni soliq qarzdorligi tahlil qilinib, lozim bo'lsa, qarzlarni byudjet ssudalari ko'rinishida rasmiylashtirish. Chunki ko'p hollarda ishlab chiqarish korxonalari shu xizmat turiga muhtoj.

- qarzdor korxona mablag'larini hisob-raqamidan chiqarish tartibini o'rnatishda, soliq to'lovlarini qonunchilik tomonidan ustuvorligini belgilash, bunda korxona faoliyat turidan kelib chiqqan xolda yondashish lozim;

- soliq qarzdorligi mavjud holatlarda qarzdorlar mulki hisobidan undirish mexanizmini soddalashtirish;

- byudjetga soliq to'lovlarini vaqtida to'lamaganligi uchun korxona-lar egalari va rahbarlariga ta'sir chorasini va mas'uliyatni kuchaytirish;

- uchastka soliq inspektorlari oroqali shu hududda faoliyat ko'rsatayotgan barcha korxona va tashkilotlarda monitoring o'rnatish orqali soliqlarni hisoblashda yo'l qo'yiladigan va tekshirish davomida aniqlanib jarima qo'llashni oldini olish;

- qarzдор korxonaning aksiyalar sotuvidan tushgan mablag'lar, shu jumladan yangi aksiyalarni chiqarish hisobidan soliqlarni to'lash imkoniyatini oldindan ko'ra bilish maqsadga muvofiqdir;

- farovon hayotimizning asosi bo'lmish, "vijdonli" soliq to'lovchilar sinfini yaratish bo'yicha, tarbiyaviy mexanizmni ishlab chiqish va uni mohirlik bilan hayotga tadbiq etish;

Jismoniy shaxslar daromad solig'idan tushumlarni ko'proq qismini joylarda qoldirish amaliyotini joriy qilish.

Yuqoridagilarni amalga oshirish soliqlar tushumini keskin oshiradi, soliq tizimini iqtisodiy o'sishga erishish vazifalari bilan bog'likligini aniqlaydi.

Daromadlar sohasida byudjet siyosati faqatgina soliq, islohotlari bilan chegaralanib qolmaydi. Mahalliy byudjetlarga tushumlarni ko'paytirishning boshqa yo'llari ham mavjud. Xususan:

– mahalliy davlat hokimiyati organlariga karashli qorxonalar xo'jalik faoliyatlarining iqtisodiy natijalarini tahlil qilib ularni yanada rivojlantirish choralarini ko'rish;

– ayrim tarmoqlarni boshqarishni nomarkazlashtirish, ya'ni bunda davlatga tegishli va alohida hududlarda joylashgan korxonalarni mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyoriga topshirish (davlat mulkini munitsipalizatsiyalashtirish);

– alohida hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqib, mahalliy zayomlarni emissiya qilish hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida ularni joylashtirishga ruxsat berish;

Mahalliy byudjetlarni shakllantirishni takomillashtirishning muhim va qonuniy yo'nalishi — bu turli darajadagi byudjetlar o'rtasidagi xarajat vakolatlarini aniq va ravshan qilib taqsimlashdan iboratdir. Bu narsa ko'pgina omillar qatorida mamlakatning geografik va demografik jihatlariga, siyosiy manfaatlariga ham bog'lik bo'ladi.

Hozirgi sharoitda, Respublika byudjeti bilan mahalliy byudjetlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, byudjet tizimi bo'yicha byudjet daromadlarining ko'payishiga hamda mablag'larning to'g'ri va maqsadli sarflanishini ta'minlashda, muxim omil bo'lib hisoblanadi. Har bir hududning rivoji, aholisining turmush sharoiti, ijtimoiy ximoya qilinishi, byudjetlararo munosabatlarning to'g'ri hal qilinishiga bog'likdir.

Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida tartibga solib turiladigan soliqlar muhim o'rin tutadi. Tartibga solib turiladigan soliqlarni byudjetlararo taqsimoti muammosi barcha o'tish davridagi davlatlar uchun xos bo'lgan xususiyatdir. Jahon banki mutaxassislarining fikriga ko'ra soliq tushumlarini taqsimlashning amaldagi uslubiyoti samarali byudjet islohotlarini o'tkazishda chalkashliklar keltirib chiqaradi. Chunki, mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda barqarorsizlikni yuzaga keltiradi. Soliq tushumlarini ko'paytirishda

manfaatdorlikni kamaytiradi. Hududlar iqtisodiy va soliq saloxiyatini kengaytirishda salbiy rol o'ynaydi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalliy byudjetlarga soliqlardan ajratmalar yagona normativlar asosida amalga oshirilsa va bu normativlar uzoq vaqt o'zgarishsiz saqlansa, salbiy holatlar kamayishi mumkin. Faqat shu holdagina mahalliy byudjetlarga ma'lum davrda qonuniy tartibda yig'ilgan soliqlarning bir qismi barqaror tushib turishiga imkon yaratiladi. Mahalliy hokimiyat ana shu o'ziga tegishli tushumni ta'minlash uchun barcha imkoniyatlarini ishga soladi. Yana shu narsa muhimki, barqaror normativlar hududlarga ko'rsatilayotgan moliyaviy yordamning miqdori va ularga beriladigan tartibga solib turiladigan soliqlarning ulushi o'rtasidagi bog'liqlikni bartaraf qiladi. Bu ham o'z navbatida mahalliy boshkaruv organlarini mahalliy byudjet bazasini mustahkamlashdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi va nihoyat qarama-qarshi moliyaviy oqimlarning, dotatsion hududlarning miqdori ko'payishiga qaramasdan bunday yondashuv byudjet aniqligi va parametrlarining kelishuvchanlik tamoyillarini bekor qilish nuqtai nazaridan ushbu yondashuv ustunlikka ega bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib, tartibga solinuvchi soliqlarni taqsimlashni isloh qilishning muhim chorasi, respublikamiz bo'yicha ma'lum davrga barqaror normativlarning joroy etilishi hisoblanadi. Tartibga soluvchi soliqlar bo'yicha belgilangan rejadan ortikcha tushumlardan esa mahalliy byudjetlar ixtiyorida koldiriladigan tushumlari 50 foiz qilib belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Ma'lum muddatga belgilangan barqaror normativlar, byudjet aniqligini, mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini shakllantirishning barqarorligini, istiqbol rejalarining yaxshilanishini, byudjet boqimandalarini kamaytirishni hamda byudjet parametrlarini ishlab chiqishda kelishuvchilik amaliyotini qiskartirishni ta'minlaydi.

Rejadan ortiqcha tushumlarning yagona normativ asosda taqsimlanishi, rejadan oshikcha tushumlarni yig'ishda manfaatdorlikni oshiradi, respublika va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashga yordam beradi.

Mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini yanada mustahkamlash, byudjetlararo munosabatlarni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, bu yo'nalishda mulkni, yerni, tabiiy resurslarni soliqqa tortish muxim ahamiyatga ega bo'ladi. Mulk solig'idan tushumlarning real oshirish yullaridan biri asosiy fondlarning bozor narxida baholashni o'tkazishdan olinishi mumkin, shuningdek, ushbu soliqdan yengilliklarni qisqartirish ham ushbu maqsadga xizmat qiladi.

Soliqlar bilan bir qatorda mahalliy byudjetlar daromadlarining shakllantiruvchi manbalari sifatida soliqsiz daromadlar ham o'z o'rniga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, soliq yukini yanada oshirmaslik talabi ana shu fikrdan kelib chiqadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari o'zlariga birlashtirilgan mulkni daromad olish maqsadida foydalanishlari, ayniqsa, pulli xizmatlar bozorini rivojlantirishlariga ko'mak beradi.

Moliya vazirligi va hududiy moliya boshqarmalari o'rtasidagi kelishmovchiliklar mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirish bosqichidayok

paydo bo'ladi. Mahalliy byudjet xarajatlarini rejalashtirishda Moliya vazirligi o'zining daromadlari rejasidan kelib chikadi. Hududlar bo'yicha esa xarajatlar ehtiyojidan kelib chiqib rejalashtiriladi, bu esa Moliya vazirligining rejalashtirganidan oshib ketadi. Kelishuv jarayonida mahalliy byudjetlar xarajatining eng maqbul rejasi aniqlanadi. Bu ham daromad bazasidan kelib chiqadi.

Xarajatlarni moliyalashtirish vakolatlarini cheklashdagi muammo, mahalliy byudjetlar ijro etilgandan keyin ba'zi mablag'lar respublika byudjetiga maqsadli yo'naltirish uchun olib qo'yilishidir. Ba'zi xarajatlarni respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga berilish holatlari ham uchrab turadi.

Respublika byudjetiga mahalliy byudjetlardan asosan ijtimoiy xarajatlar, ya'ni, birinchi sinflarga o'quv kurollari ajratish, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyim xarajatlari olib quyiladi.

Investitsiyalar dasturi aniqlanayotganda byudjet tasdiqlangandan keyin investitsiyalarning bir qismi, ya'ni, kollejlarda va litseylar qurishni moliyalashtirish kabi xarajatlar respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga beriladi.

Respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga yuklatilgan va aksincha mahalliy byudjetlardan respublika byudjetiga o'tkazib berilgan xarajatlar o'zaro hisob-kitoblarga olib boriladi.

Bunday amaliyot bizning fikrimizcha xarajat vakolatlarini taqsimlashning aniq, tartibi yo'qligi natijasidir. "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonun bu xarajatlarni mahalliy byudjetlar zimmasiga yuklab qo'ygan, ammo bu xarajatlarning mahalliy byudjetlarga, ular daromad bazasini tegishli ravishda mustahkamlamasdan yuklatilishi byudjet ssudalariga bo'lgan ehtiyojlarini oshiradi, bu esa ular qaytarilmasligi nuqtai nazaridan olganda oxir-oqibatda samarasiz usuldir.

Xarajat vakolatlarini taqsimlashda, qoidaga ko'ra, bevosita uni uchun javob beradigan hokimiyat darajasi aniqlanadi. Shundan keyin, moliyalashtirishni mahalliy byudjetga berish bo'yicha qaror qabul qilinadi. Bu yondashuvdan kelib chiqqan holda mahalliy byudjetlar uchun birinchi darajali sanalgan ijtimoiy xarajatlarni (birinchi sinf o'quvchilari uchun o'quv qurollari, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyim) umumiy xarajatlardan ajratib olish kerak bo'ladi. Bu xarajatlarni chala moliyalashtirish amaliyotidan voz kechish va ssuda olishni chetlab o'tish maqsadida ularni moliyalashtirish xarajatlarini respublika byudjetidan maqsadli subvensiyalar ko'rinishida berish kerak.

Xarajat vakolatlarining bo'linishi quyidagi tamoyillar asosida amalga oshirilishi zarur:

- Xarajat vakolatlarining byudjet xizmatidan foydalanuvchilarga mumkin qadar yaqinligi;
- Bir qator xarajatlarni markazlashgan tartibda amalga oshirish foydaliroqdir;
- Tashqi samara hisobga olinishi;

Byudjetlararo tartibga solishning asosini mablag'larni quyi byudjetlarga moliyaviy yordam sifatida qayta taqsimlash hisoblanadi. Hududlarning byudjetdan amalga oshirilayotgan xarajatlarining yetarli daromadlar bilan ta'minlanmaganligi mahalliy byudjetlarni davlat tomonidan daromadlarni tartibga solishda birlamchi Respublika byudjetida yig'ilgan daromadlarini bir qismini qayta taqsimlashni talab

qiladi. Bu maqsadda barcha davlatlar amaliyotida dotatsiya va subvensiyalardan foydalaniladi.

Hududlarga moliyaviy yordam ko'rsatishga yondashuvlarni mahalliy byudjetlarning daromad bazasi va ularning xarajatlaridan ajratib olgan holda ko'rib chiqish mumkin emas. Shuning uchun, moliyaviy yordam ko'ratishning shakli va mexanizmini asoslash mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini va ular xarajatlarining normativlarini takomillashtirish vazifalarini ham o'z ichiga oladi. Buning asosida esa moliyaviy yordam yo'nalishi va hajmi aniqlanadi. Hududlarga moliyaviy yordam subvensiya ko'rinishida aniq maqsadlar uchun moliyalashtirishga berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Moliyaviy yordam berishga yondashuvning asoslari yaratilsa, mahalliy byudjetlardagi boqimanda kayfiyatlarni bartaraf etish, byudjet parametrlarini kelishuv asosida tashkil etish amaliyotidan voz kechilishi mumkin.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot ishi natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirilishiga erishildi:

1. Mahalliy byudjetlar daromadlar ijrosi doirasida hududga belgilangan reja soliq tushumlarini ortig'i bilan bajarish holatlari kuzatildi. Biroq, ana shu ortiqcha bajarilgan summaning ko'proq qismi yuqori byudjetlarga olinishi munosabati bilan mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'z hududida soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha manfaatdorligini susaytirishi holatlariga duch kelinmoqda;

2. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanar ekan, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirishda ularga qimmatli qog'ozlar bozorining faol ishtirokchisi aylantirishni yo'lga qo'yish kerak.

Yuqoridagi xulosalarimizdan kelib chiqib mahalliy byudjetlarning daromadlari barqarorligini ta'minlash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarimizni aks ettiramiz:

1. Mahalla davlat hokimiyat organlarining soliq va byudjet tizimini barqarorlashtirish uchun huqumat tomonidan korxonalar foydasiga soliq, jismoniy shaxslar daromadidan soliq, QQS kabi tartibga solinadigan soliqlar bo'yicha imtiyozlarni ko'rib chiqish va bekor qilish katta ahamiyat kasb etadi. Zarur hallarda esa (xususan, nogironlar jamiyati korxonalariga) imtiyozlarni bekor qilib, ularni o'rniga respublika byudjetidan to'g'ridan- to'g'ri dotatsiya berishni amalga oshirish mumkin.

2. Byudjetga soliqlar tushumini keskin oshirish maqsadida byudjetga soliq to'lovlarini vaqtida va to'liq to'lamaganligi uchun korxonalar egalari va rahbarlariga qattiq mas'uliyatni yuklash, qarzdorlar mol-mulki hisobidan qarzlarni undirish tizimini soddalashtirish. Byudjet oldidagi majburiyatini bajarish xususida ta'sischilar, mulk egalari hisobidan undirish mexanizmini yaratish.

3. Mahalliy byudjetlarga qimmatli qog'ozlar bozorida (obligatsiyalar, mahalliy zayomlar) faol ishtirok etishiga normativ hujjatlar yaratish. Bu orqali byudjet daromadlarini oshirish, daromad keltiruvchi munitsipal mulkni yaratish, investitsiya imkoniyatlarini oshirish lozim.

4. Hududlarda soliq va majburiy to'lovlarni ortig'i bilan bajarilganlik holatlarida ortiqcha bajarilgan daromad summasini byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning aniq metodikasini ishlab chiqish.

5. Suv resurslaridan foydalanish solig'idan tushumlar o'rniga jismoniy shaxslar olinadigan daromad solig'ini joylarga berish va bunda xorij tajribasidan keng foydalanish;

6. Byudjet ijrosi davrida daromadlar va xarajatlarga o'zgartirish kiritishga chek qo'yish.

Biz yuqorida qayd etilgan takliflarni amaliyotga tatbiq etish mahalliy byudjetlarning mustakilligini va barkarorligini ta'minlash imkoniyatini yaratib deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining Solik kodeksi 2014yil
3. “O'zbekiston Respublikasining “Byudjet tizimi to'g'risida”gi 2000 yil 14 dekabrda Qonuni. //Soliqlar va bojxona xabarlar, 2-son. 2001.
4. O'zbekiston Respublikasining “Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida” Qonuni. 26.08.2004.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning Qarorlari va Farmonlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 1887-son Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentabrda 414-son «Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi-ning aholi punktlarida obodonchilik ishlarini yaxshilashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1045-son Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1213-sonli «O'zbekiston Respublikasining 2010 yilga investitsion dasturi to'g'risida»gi Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 29 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi investitsion dasturi to'g'risida»gi 1455-son Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining aholi punktlarida obodonchilik ishlarini yaxshilashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1045-son qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Farmonlari

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 9 sentabr 1999 yildagi «Byudjetdan moliyalashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 414-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bevosita xususiy xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida”gi 2005 yil 3 avgustda Qarori. // “Soliq va bojxona xabarlar” gazetasi, 2005 yil 5 dekabr, 49-son.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning asarlari

13. Karimov I.A. O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li. –T.: O'zbekiston, 1993. – 128 b.
14. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1995. – 296 b.
15. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqbol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O'zbekiston, 1996. T.1. – 364 b.
16. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.: O'zbekiston, 1996. T.2.

– 380 b.

17. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: O‘zbekiston, 1997. – 48 b.
18. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikni tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O‘zbekiston, 1997. – 315 b.
19. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O‘zbekiston, 1998.– 686 b.
20. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O‘zbekiston, 2005. – 96 b.
21. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. –T.: O‘zbekiston, 2005. – 528 b.
22. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish - barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. –T.: O‘zbekiston, 2007.– 200 b.
23. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. –T.: O‘zbekiston, 2008. T.16. – 365 b.
24. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.: Ma’navi-yat.2008y.
25. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.
26. Karimov I.A. O‘zbekiston Konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo‘lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. // Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 17 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 05.12.2009
27. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2010. 36b.
28. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. //Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi ma’ruzasi.
30. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2010.-56b.
31. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.–T.:O‘zbekiston,2011.-48b.
32. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – T.: “O‘zbekiston”, 2012. 36b.
33. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davvom ettirish. – T.: “O‘zbekiston”, 2013. 64b.

V. Normativ xujjatlar

34. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 26 noyabr 1999 yildagi «Byudjet tashkilotlari tomonidan foydalanilmayotgan davlat mulkini boshqa korxona va tashkilotlarga vaqtinchalik ijaraga berish tartibi to‘g‘risida»gi 88-sonli Nizomi.
35. O‘zbekiston Respublikasining soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha meyoriy-xuquqiy hujjatlari to‘plami. I jild. – T.: NORMA, 2007. – 368 b.

36. O'zbekiston Respublikasining soliqlar va yig'img'lar bo'yicha meyoriy-xuquqiy hujjatlari to'plami. II jild. – T.: NORMA, 2007. – 256 b.

VI. Maxsus adabiyotlar, o'quv qo'llanmalar va monografiyalar

37. E.V. Alexin. Gosudarstvenniye i munitsipalniye finansi. – M.: Uchebnik. 240s.
38. Bulatov A. Ekonomika. – Moskva: Bek, 1994. – 309 s.
39. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. Uchebnik pod red. G.B. Polyaka. – M.: YUNITI, 1999. – 370 s.
40. Byudjetniy federalizm i mejbyudjetniye otnosheniya: problemi i perspektivi razvitiya. Bulatov A. Ekonomika. – M.: Bek, 2003. – 370 s.
41. Gataulin SH. Soliqlar va soliqqa tortish. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1996.
42. Drobozina L.A. Obshaya teoriya finansov. – M.: "Banki i birji", 1999. – 431 s.
43. Juravleva L.V. Byudjetnaya politika kak metod gosudarstvennogo regulirovaniya. – M.: Delo LTD, 1998. – 164 s.
44. Istoriya finansovoy misli i politika nalogov. Uch. pos. pod red. Pushkarevoy V.M. – M.: INFRA-M, 1996. – 191 s.
45. Keyns Djon Meynard. Obshaya teoriya zanyatnosti, protsenta i deneg. –M.: Progress, 1978.
46. Nitti F. Osnovniye nachala finansovoy nauki. – M., 1904.
47. Petti U. Ekonomicheskiye i statisticheskiye raboti. – Moskva: Sotsingiz, 1940.
48. Blaug M. Ekonomicheskaya misl v retrospektive. Per. s angl., 4-ye izd. – M.: Delo. Ltd, 1994.
49. Rikardo D. Nachala politicheskoy ekonomii i nalogovogo oblojeniya. Sochineniya, tom I. – M.: Gosudarvennoye izdatelstvo politicheskoy literaturi, 1955.
50. Malikov T.S., Xaydarov N.X. Byudjet daromadlari va xarajatlari. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 235b.
51. Malikov T.S. Byudjet-soliq siyosati. – T.: Akademyashr, 2011. – 472b.
52. Osnovi upravleniya finansami. Van Xorn Dj. Per. s angl. Gl. Red. serii Y. V. Sokolov - M.: Finansi i statistika, 1996. –799 str.
53. Rodionova V.M. Finansi. –M.: Finansi i statistika, 1995.-432 s.
54. Finansi: Uch. dlya vuzov. Pod red. L.A. Drobozinoy. – M.: YUNITI, 1999. – 560 s.
55. Xristenko V.B. Mejbyudjetniye otnosheniya i upravleniye regionalnimi finansami: opit, problemi, perspektivi. – M.: Delo, 2002. – 608 s.
56. Babich A.M., Pavlova L.N. Gosudarstvenniye i munitsipalniye finansi. – M.: YUNITI, 1999. – 460 s.
57. Vaxobov A., Jamolov X. Soglasovaniye mejbyudjetnix otnosheniy. – T.: Moliya, 2002. – 239 s.
58. Yo'ldoshev N., Tursunov Y. Soliq huquqi. – T.: Moliya, 2000. – 212 b.
59. Karaseva M.V., Kroxina Y.A. Finansovoye pravo. – M.: NORMA, 2001.– 230 s.
60. Makroekonomika: Uchebnoye posobiye pod red. N.I. Baziles, S.P. Gurko i dr. – Minsk: BGEU, 1999. – 216 s.

61. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliyaviy menejment. – T.: Sharq, 1999. – 137 b.
62. Panskov V.G., Knyazev V.G. Nalogi i nalogooblojeniye. – M.: MSFER, 2003. – 296 s.
63. O‘lmasov A., Sharifxo‘jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: Mehnat, 1995. – 527 b.
64. Finansi, denejnoye obrao‘yeniye i kredit. Uchebnik. Pod redaksiyey V.K.Senchagova i A.I.Arhipova. – Moskva: Prospekt, 1999. – 545 s.
65. Dadashev A.Z., Pavlova L.P., Chernik D.G. Nalogi i nalogooblojeniye. – M.: INFRA-M, 2003. – 345 s.
66. Finansi: Uch. dlya vuzov. Pod red. M.V. Romanovskogo, O.V. Vrublevskoy, B.M. Sabanti. – M.: Yurayt, 2000. – 520 s.
67. Paskachev A.B., Sadigov F.K., Mishin V.I., Saakyan R.A. i dr. Analiz i planirovaniye nalogovix postupleniy: teoriya i praktika. Pod red. F.K.Sadigova. – M.: Ekonomiko-pravovoy literaturi, 2004. – 232 s.
68. Srojiddinova Z. O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi. – T.: infocom, 2010.
69. Srojiddinova Z. Byudjetlararo munosabatlar. – T.: infocom, 2010.
70. Teoriya finansov. Uchebnoye posobiye N.Z.Zayats, M.K. Fisenko, T.YE. Bondar i dr. 2-ye izd. stereotip. – Mn.: Visshaya shkola, 1998. – 368 s.
71. Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan va texnologiyalar, 2003.
72. Qosimova G. «Mahalliy byudjetlarni tuzish va ijrosini ta’minlash». – T.: “Fan va texnologiya”, 2007.

VII. Ilmiy maqolalar, gazeta va jurnallar

73. Verxolaz M.A. Vliyaniye stepeni ispolzovaniya ekonomicheskogo poten-siala na sostoyaniye mestnix byudjetov. – Belgrad, Iskra, 1997. – 91 s.
74. Gizatullin X.N., Zaripova I.R. Formirovaniye i problemi rasshireniya samostoyatelnosti mestnix byudjetov v usloviyax rinochnix otnosheniy. – Ufa: Institut ekonomiki UrO RAN, 1997. – 48 s.
75. Kolomnets A.L., Novikova A.I. O sootnoshenii finansovogo i nalogovogo potentsialov v regionalnom razreze. //Nalogoviy Vestnik, 2001, №3, s.-5.
76. Prokopchuk L.O., Kozireva A.A. Strategicheskoye planirovaniye: konspekt leksiy. – SPb: Izd. Mixaylova V.A., 2000. – 64 s.
77. Sabitova N.M. O ponyatii finansovogo potentsiala regiona i metodologii yego otsenki//j. «Finansi», 2003, №2, s.- 63-65.
78. Umarov B. Korxonalar mol mulkini soliqqa tortish mexanizmidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari (O‘zbekiston Respublikasi materiallari asosida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. B 27.
79. Chernik D. Nalogi v rinochnoy ekonomike. // Finansi, – Moskva, 1992. - № 3. – S. 19.
80. Shuvalova YE.B. Nalogoviye sistemi zarubejnix stran: uchebno-prakticheskoye posobiye / YE.B. Shuvalova, V.V. Klimovitskiy, A.M. Puzin. – M.: Izd. sentr YEAOI, 2010. – S.90.

81. Qobulov X.A. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini oshirish yoʻnalishlari: I.f.n. ilmiy darajasi uchun diss. avtoreferati. T.: BMA, 2006.

VIII. Internet saytlar

- 82. www.lex/uz - Oʻzbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
- 83. www.mf/uz - Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
- 84. www.uza.uz - Oʻzbekiston axborot agentligi sayti.
- 85. www.soliq/uz - Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi sayti.
- 86. www.stat/uz - Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi sayti.
- 87. www.nalog.ru
- 88. www.boj.or.jp
- 89. www.berator/uz
- 90. www.budgetrf.ru